

## TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASINI SHAKLLANISHI

Suvanova Rohila Akramovna  
Samarqand Davlat Universiteti  
Filologiya fakulteti dotsenti  
[Tel:+998939978208](tel:+998939978208)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasini shakllanishi va taraqqiyotini bosqichma-bosqich ko'rib o'tamiz. Jumladan: Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari

Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimat ul-adab", Abu Hayyonning "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok" asarlari haqida to'xtalamiz.

Umuman bu sohada turkolog olimlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari haqida batafsil fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qiyosiy, turkiy tillar oilasi, bobo til, til oilasi, oltoy tillari oilasi, til guruhlar, turkiy tillar guruhi, genetik qardoshlik, tillar tasnifi, tasniflash mezonlari, geneologik tasnif, izlanishlar, turkolog olimlar.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab XX asr boshlariga qadar turkiyshunos tilshunoslar turkiy tillarni qiyosiy o'rganish sohasida samarali izlanishlar olib brogan. Ayniqsa bu sohadagi izlanishlar XX asr tilshunosligida keng qamrovga ega bo'ldi. Jumladan Rossiya fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti turkiy tillar bo'limi, uning Peterburg va Sibir bo'limlari tomonidan turkiy xalqlar yashovchi hududlardagi barcha turkiy elat va xalq tillari yetarli o'rganildi.

Barcha hozirgi turkiy tillarning tovush tizimi, lug'at boyligi va grammatik qurilishini o'rganish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borildi. Shu asnoda hozirgi kunga qadar ko'plab ilmiy ishlar monografiyalar va turkiy tillarning qiyosiy lug'atlari yaratildi.

O'tgan asrning 70- yillarida turkiy tillar tarixi bo'yicha bir qancha monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, turkologiya tarixini sinxronik va diaxronik aspektda tadqiqotlar olib borildi. Turkiy tillar tasnifi, turkiy tillar fonetikasi, leksikologiyasi, semasiologiyasi, terminologiyasi, leksikografiyasi, grammatikasiga doir izlanishlar o'z natijasini berdi. Monografiyalar, qo'llanmalar yaratildi, ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Turkiy tillarda yaratilgan yozma yodgorliklar o'rganilib, nashr etildi va keng foydalanildi.

Turkiy tillarning tarixiy fonetikasi va morfologiyasining umumlashtirilgan tahlili M.Ryasyanen izlanishlarida, nazariy masalalari umumiy va farqli xususiyatlari, tarixi A.Emre, A.Dilachar va boshqa bir qator turkologlar tadqiqotlarida aks etgan. A. Gafero'g'luning "Turk tili tarixi" kitobida turkiy tillarning shakllanish davridan keyingi taraqqiyot bosqichigacha bo'lgan davr ilmiy izlanishlar tahlili asosida

yoritilgan. Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Xorazmiy, Rabg‘uziy asarlaridan namunalar keltirilgan.

Turkli tillar — bu hozirgi va qadimgi turkli ellar va elatlarning tillaridir. Asosan u

O‘zbekiston, Turkiya, Ozərbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, XXR, Afg‘oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bulg‘ariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Shimoliy Makedoniya, Albaniya, AQSh, Saudiya Arabistoni va boshqa bir qancha mamlakatlarda tarqalgan. O‘tgan asr oxiridagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Turkiy tillarda so‘zlashuvchilarning umumiy soni 130 milliondan oshdi.

Jahon tillarini qiyosiy o‘rganish XVIII asrning birinchi yarmidan boshlandi. Birinchidan, yer yuzidagi qarindosh tillarni fonetik, leksik, grammatik jihatdan qiyoslash bo‘lsa, ikkinchidan, har bir til oilasi uchun asos bo‘lgan bobo tilni aniqlashga urinishni maydonga keltirdi. Shu asnoda tilshunoslik fan sifatida shakllanishiga sabab bo‘ldi.

XIX asrda turkiy tillarni qiyosiy o‘rganuvchi g‘arb va rus turkiyshunos tilshunoslarining peshqadami Vasiliy Vasilevich Radlov o‘zining hozirgacha butun turkiy tilshunoslikda mashhur bo‘lgan lug‘ati “Опыт словаря тюркских наречий” (Turkiy lahjalar lug‘ati tajribasidan) asarining so‘z boshisida turkiy til va lahjalarni o‘rganishga 1859 yildan boshlab kirishganligini yozadi.

V.V.Radlov shundan keyingi qariyb yarim asr mobaynida turkiy elat va xalqlarning xalq og‘zaki ijodini tadqiq qilish bilan birga ularning til va lahjalari leksikasi bo‘yicha ham behad material to‘plab, 1888–1911 yillarda Sankt-Peterburg matbaasida o‘zining to‘rt jild sakkiz qismdan iborat bo‘lgan yuqorida qayd qilingan qiyosiy «Lug‘at»ini nashr qildiradi. Nashriyot bu “Lug‘at”ni “turkiy tillar leksikasi ko‘lami va ilmiyligi” jihatidan V.V.Radlovning eng buyuk muvaffaqiyati deb baholaydi. Darhaqiqat, “Lug‘at” o‘z qiymatini hozirga qadar ham yo‘qotgan emas.

Turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish sohasida V.V.Radlov “Lug‘ati”dan oldin 1868–1877 yillarda Sankt-Peterburgda L.Budagovning ikki jildlik “Turk-tatar lahjalari qiyosiy lug‘ati” nomli yirik asari nashr qilingan.

Turkiy tillarning mukammal qiyosiy grammatikalari asosan XX asrning II yarmida Rossiya fanlari akademiyasi Moskva va Sankt-Peterburg tilshunoslik institutlari olimlari tomonidan yaratildi. N.A.Baskakov, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva, A.M.Shcherbak, E.R.Tenishev, L.S.Leviskaya, L.A.Pokrovskaya kabi rus tilshunos olimlarining ko‘p yillik samarali izlanishlari natijasida turkiy tillarning bir necha jildlik ilmiy tarixiy grammatikalari va monografiyalari yaratildi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab XX asr boshlariga qadar turkshunos tilshunoslari turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish sohasida samarali izlanishlar olib brogan. Ayniqsa bu sohadagi izlanishlar XX asr tilshunosligida keng qamrovga ega bo‘ldi. Jumladan Rossiya fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti turkiy tillar bo‘limi, uning Peterbur va Sibir bo‘limlari tomonidan turkiy xalqlar yashovchi hududlardagi barcha turkiy elat va xalq tillari yetarli o‘rganildi.

Barcha hozirgi turkiy tillarning tovush tizimi, lug‘at boyligi va grammatik qurilishini o‘rganish bo‘yicha chuqur ilmiy tekshirish ishlari olib borildi. Shu asnoda hozirgi kunga qadar ko‘plab ilmiy ishlar Monografiyalar va turkiy tillarning qiyosiy

lug'atlari yaratildi. Ushbu o'quv qo'llanmaning yaratilishida yuqorida qayd etilgan boy materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Bizga ma'lumki grammatika tilning eng kam o'zgaruvchan, barqaror qismi bo'lib, voqeylikni eng yuksak umumlashtirish natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Umumlashtirish faqat grammatikaga xos emas, balki leksikaga ham xosdir..

Grammatika tilning grammatik qurulishi-grammatik tizimi sohasida bahs yuritadigan fandir.

Tilda so'zning Grammatik ma'nosini shakllantirish faqat so'z negiziga grammatik qo'shimchalar qo'shish orqali emas, boshqa usullar: so'z o'zagining ichki o'zgarishi orqali ham hosil bo'ladi, bular esa qo'shma-juft so'zlar, yordamchi so'zlar, urg'u va intonatsiya orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi turkiy tillar taraqqiyoti quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

1. Turkiy tillar taraqqiyotining Oltoy davri (eradan avvalgi III asrlarga qadar).
2. Qadimgi xun davri (eradan avvalgi III asrlar va yangi eraning V asrlariga qadar).
3. Qadimgi turk davri (V-X asrlar).
4. O'rta turk davri (X -X V asrlar).
5. Yangi turk davri (XV -XX asrlar).
6. Eng yangi turk davri (XX asr).

Turkiy tillar taraqqiyotining o'rta turk davrida turkiy tillar taraqqiyotining eng murakkab shunga qaramay, hozirgi mavjud tillarning har birining o'ziga xos tovush qiyofasi, lug'at tarkibi va grammatik qurilishi jihatdan tashkil topish hamda rivojlanish davri bo'ldi. Bu davr tili haqida yozma manbalar yetarli bo'lib ulardan birinchisi M. Koshg'ariyning "Devon"idir. "Devonu lug'otit turk" asari ikki qismdan tashkil topgan: 1) muqaddima; 2) lug'at. Muqaddima qismida turkiy tillarning mavqeyi, lug'atning oldiga qo'yilgan vazifalar, asar mundarijasi, turkiy tillarda so'z tuzilishi va yasalishi, turkiy qabilalar va turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

"Devon"ning lug'at qismi sakkiz bo'limdan iborat: 1. Hamzali so'zlar bo'limi (boshida alif, vov, yoy harflari keladigan so'zlar). 2. Solim (tarkibida alif, vov, ^qv harflari keladigan so'zlar) bo'limi. 3. Muzaaf bo'limi (tarkibida bir harfi takrorlangan so'zlar). 4. Misol (boshida, o'rtasida yoki oxirida alif, vov, yoy harflaridan biri kelgan so'zlar) bo'limi. 5. Uch harfli so'zlar bo'limi. 6. To'rt harfli so'zlar bo'limi. 7. G'unnalilar (tarkibida burun tovishlari keladigan so'zlar) bo'limi. 8. Tarkibida ikki undosh qator kelgan so'zlar bo'limi. Lug'atda turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 atrofidagi so'z izohlangan.

Koshg'ariy XI asrda yashagan turkiy xalqlarning tillarini ikki qismga ajratadi:

1. Sharqiy turkiylar tili. 2. G'arbiy turkiylar tili. Birinchi guruhga Bolosog'un, Koshg'ar atrofida yashaydigan xalqlarning tillarini kiritdi. Bular chigil, qarluq, uyg'ur, tuxsi, yag 'mo kabi xalq va qabilalar tillaridan iborat edi. Qolgan tillarni ikkinchi guruhga kiritdi. Mahmud Koshg'ariy o'z davriga xos til xaritasini yaratdi.

Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimat ul-adab", Abu Hayyonning "Ad-durrat -ul mudi'ye fi-l-lug'atit-turkiy", "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok", Faxriddin Muhammad ibn Mustafoning "Qavoyid ul-lisani turk", Jamoliddin Ibn Muxannaning "Xiliat ul-inson va xalibat ul-lison", Jamoliddin at-Turkiyning "Kitobi ul-lug'ot al-mushtoq fi-l-lug'ati at-turk val-qipchoq", muallifi noma'lum "Kitob-i-majmu-u-

tarjimonturki va ajamiy va mo'g'uliy". "Kitob-at-tuhfat-uz-zakiyatu fi-l-lug'at-it-turkiy" asarlarida ham turkiy tillar grammatikasi, leksikasiga doir ma'lumotlar berilgan.

Yuqorida zikr etilgan allomalarning asarlari grammatikani tarixiy jihatdan o'rganishda dasturi amal bo'lib xizmat qildi.

Hozirgi turkiy tillarning leksikasi ham o'ta rang-baranglikka ega. Bu ham ularning uzoq tarixiy o'tmishi bilan bog'liq. Turkiy elat va xalqlarning shakllanish jarayonlaridan boshlab, to hozirgi taraqqiyot bosqichlarigacha bo'lgan uzoq davrlarda ular o'rtasidagi ichki ziddiyat va qarama-qarshiliklar, o'tgan asrlarda butun turkiy hududlarning ajnabiy xalqlar tomonidan bosib olinishi va bo'ysundirilishi, avvalo, turkiy tillar leksikasining ham o'zgarishiga, ayrim turkiy tillarda ko'plab arab va fors olinmalarining, ayrim tillarda esa rus, mo'g'ul olinmalarining ko'payishiga sabab bo'lgan. Bu jihatdan ham, masalan, o'zbek, ozarbayjon tillari bilan yoqut, hakas yoki oltoy tillari o'rtasida juda kata farqlar mavjud.

Tilning grammatik qurilishi uning eng kam o'zgaradigan tomondir. Bu turkiy tillarga ham xos xususiyat.

Morfologiya va sintaksis til grammatikasining ajralmas qismlaridir. Tilning morfologik tuzilishidagi har qanday o'zgarish uning sintaktik qurilishida ham o'z ifodasini topadi.

Umuman, hozirgi turkiy tillarning ana shu kabi xususiyatlarini qiyosiy o'rganish faqat hozirgi turkiy tillarning fonetik, leksik-semantik, grammatik munosabatlarining taraqqiyotigagina emas, balki shu tillarda so'zlashuvchi jamoalarning siyosiy-iqtisodiy, madaniy turmush sharoitlarining uyg'unlashishiga ham imkon yaratadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М., 1969.—384 с.
2. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent, 1982.
3. Adile Ayda. Etrüskler (Tursakalar) Türk idiler. Ankara. 1992
4. Caferoğlu A. Türk Dili Tarihi. Ankara, 2001.
5. Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.-Toshkent, 2004.
6. Xudoyberdiyev J. Turkiy filologiyaga kirish.— Toshkent, 2006. – 66 b.
7. Gumilev JI. N. Qadimgi turklar. - Toshkent: Fan, 2007, 500 b.
8. Yo. Abdurasulov. Turkiy tillarning qiyosiy–tarixiy grammatikasi. - Toshkent, Fan, 2009.
9. Uluqov N. Turkiy filologiyaga kirish. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: Navro'z, 2016. – B 172.
10. Suvonova R.A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2023.